



ANDIJON VILOYATIDA ASALARILARNING BIOEKOLOGIYASI VA XO‘JALIK AHAMYATI

Zokirov Odiljon Kozimovich., Axmedov Anvar Tursunboyevich., Latifjonova
Saboxat Xabibillo qizi

Andijon davlat universiteti

Maqola haqida ma'lumot
Qabul qilingan: 11.06.2024
Qayta qabul : 16.06.2024
Saytda mavjud : 25.06.2024

Muallif (lar)
O.K.Zokirov
*A.T.Axmedov
S.X.Latifjonova



Muallif bilan aloqa

<https://orcid.org/0009-0000-6651-2429>

anvar865@gmail.com

© O.K.Zokirov va boshqalar
UNIVERSAL xalqaro ilmiy jurnal

Ochiq ma'lumotlar:
<https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal>

Maxfiylik bayonoti

Materialni istalgan vosita yoki formatda nusxalash va qayta tarqatish hamda maqoladan to'g'ri iqtibos keltirish va litsenziyasini ko'rsatish sharti bilan istalgan maqsadda foydalanish mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijonning janubi-sharqiy qismida tarqalgan (*Apis mellifera* L.) -turining turli xil bioekologik xususiyatlari, tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini hosildorligini oshirishdagi ahamiyatini o'rganish natijalari aks etgan.

Kalit so'zlar: parvarish, foydalanish, mevali, qishloq xo'jaligi, asal, asalarichilik.

Аннотация: В статье представлены результаты изучения различных биоэкологических особенностей вида (*Apis mellifera* L.), распространенного в юго-восточной части Андижана, его значения в природе и жизни человека, а также значения в повышении продуктивности сельскохозяйственных культур.

Ключевые слова: уход, использование, плоды, сельское хозяйство, мед, пчеловодство.

Abstract: This article presents the results of the study of various bioecological characteristics of the species (*Apis mellifera* L.) distributed in the southeastern part of Andijan, its importance in nature and human life, and its importance in increasing the productivity of agricultural crops.

Key words: care, use, fruit, agriculture, honey, beekeeping.

Insoniyat bor ekan asalarilar yetishtirgan asal mahsulotiga bo'lgan talab va extiyoj kundand- kunga oshib boraveradi. Hozir har bir sohada: ya'ni sanoat, qandolat fabrikasi, samalyotsozlik, raketsozlik, radio va televizor hamda kompyuter sohalarida asalarilarning mum maxsulotlaridan foydalanilmoqda. Shuning uchun ham asalarichilik doimo chorvachilikka nisbatan daromadli tarmoq hisoblanadi.

Mustaqillikka erishishimizdan oldin xammamizga ma'lumki sobiq SSSR davrida qishloq xo'jaligini xosildorligini oshirish maqsadida kimyoviy o'g'itlardan ko'p foydalanilgan. Buning ta'siri esa xozirga qadar bizning yerlarimizda o'z tasirini ko'rsatib kelmoqda. Xozirgi kunda kelib, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda tabiiy, samarali va foydali inson hayoti uchun ahamiyatli usullardan foydalanish yo'lga qo'yilib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan ushbu mavzuni o'rganish ahamiyati xozirgi zamonning dolzarb mavzusi bo'lib kelmoqda.

Asalarichilik qishloq xo'jaligining tarmoqlaridan biri, asalarilarni asal, mum va boshqa mahsulotlar (asalari suti, asalari yelimi, asalari zahari va boshqalar) olish, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun ularni changlatish maqsadlarida boqiladi. Ispaniyadagi Aran g'oridan topilgan arxeologik ma'lumotlarga ko'ra asalarilar miloddan avvalgi 10-5ming yilliklarda ham mavjud bo'lgan degan tahminlar bor. "Tavrot", "Bibliya" kabi diniy kitoblarda ham asalarilarto'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Dastlab odamlar asalni o'rmon va tog'larda daraxtlarning kovaklari, toshlar yoriqlari, g'orlarga uya qo'ygan asalarilardan olganlar.

Bunday asalarilar terimchilik va ovchilikning bir turi hisoblangan.

20-asrning 20-yillaridan maxsus asalarichilik xo'jaliklari paydo bo'ldi. Asalarilar yer yuzasining barcha qit'alarida tarqalgan. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 1970-yillar boshida jahonda 40 mln.ga yaqin asalari uya (oilalari) mavjud bo'lgan. Jahon mamlakatlarida asalarilar asosan 3 yo'nalishda rivojlanmoqda: asal olish; ekinlarni changlatish; boshqa xo'jaliklarga tarqatish uchun eng yaxshi asalari zotlarining ona arisini yetishtirish (ona asalari yetishtiruvchi xo'jaliklar) va asalari oilalarini ko'paytirish. Asalarichilik Rossiya, Ukraina, AQSH, Meksika, Turkiya, Fransiyada ayniqsa, rivojlangan. 1887-yilda tuzilgan "Api-mondiya" Xalqaro asalarichilik tashkiloti asalarichilar o'rtasida xalqaro aloqalarni rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekistonda asalarichilik mahsulotlari qadimdan oziq-ovqat va doridarmon sifatida ma'lum bo'lsada, asalarilarni qutilarda boqish 19-asrning 2-yarmidan boshlangan. Turkistonga dastlabki asalari oilalari 1841-yilda Qozog'istonning Semipalatinsk viloyatidan keltirilgan. 19-asrning 2-yarmida Turkistonga o'rta rus asalarisi, Kavkaz kulrang tog' asalarisi, ukrain dasht asalarisi va boshqa olib kelingan va O'zbekistonda foydali xo'jalik belgilari bilan ajdodlaridan farq qiladigan asalarilar populyatsiyasi vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasida 154 ming asalari oilasi (kutisi) bor. Ixtisoslashtirilgan asalarichilik

xo'jaliklari tashkil etilgan. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida 48 asalarichilik xo'jaligi (88 ming asalari oilasi), shu jumladan, "Asal" uyushmasi bor (1998). Respublikadagi o'rmon xo'jaligi korxonalarida, "O'zmevasabzavotuzumsanoatxolding" kompaniyasi tarkibida ham asalarichilik xo'jaliklari bor [1;3;].

Arilar zoti deb, shu yer iqlimi sharoitida yashayotgan ko'pchilik ari oilalarining tashqi ko'rinishi va yashash sharoiti bir xil ko'rinishga o'xshash, ularning fiziologik va morfologik, shuningdek, foydali xo'jalik belgilari bir-biriga o'xshash yoki bir avloddan ikkinchi avlodga o'xshashlik belgilarining o'tishi hamda shu sharoitga moslashgan ari turlariga aytiladi. Asalarichilikda shu paytgacha inson tomonidan birorta ham ari zoti yaratilmagan. Shunga qaramasdan tabiat iqlim sharoitiga moslashgan tabiiy ari zotlari bor. Mana shu tabiat saralab yetishtirgan ari zotlarini aborigen zoti deb ataladi. Avvaldan ko'p ming yillar ichida tabiat qonunlari bo'yicha tabiiy saralash oqibatida bir-biridan morfologik, biologik va xo'jalik ko'rsatkichlari hamda qit'alar, hududlar bo'yicha o'z nomini olgan aborigen asalari zotlari mavjudligi mutaxassislariga ma'lum. MDKH hududlarida quyidagi aborigen ari zotlari: "O'rta rus", "Qo'ng'ir Kavkaz tog'arisi", "Sariq Kavkaz arisi", "Karpas" arisi, "Ukraina cho'l arisi" va boshqa joydan keltirilgan arilardan "Italiya arisi" hamda Yugoslaviyadan keltirilgan "Krainka" ari zotlari tarqalgan. Kelib chiqishi bo'yicha karpas zoti deb atalgan asalari zoti oldinga yuz yillikdan to xozirgi kungacha O'zbekiston iqlim sharoitiga mos ari zoti bo'lgani uchun bir asr davomida butun O'zbekiston viloyat va

tumanlarida shu zot arilari va ularning avlodlari boqib ko'paytirilmoqda.

Asalarilar ustida tadqiqot olib borishda tadqiqotning haqiqiyliigi va ishonchligini ta'minlash uchun tegishli tadqiqot materiallari va metodologiyalarini tanlash muhimdir:

- Asalari uyalari: Tadqiqotchilar asalarilarning xatti-harakatlarini kuzatish, namunalar yig'ish va uyaning sog'lig'ini kuzatish uchun asalari uyasiga ega bo'lishlari kerak bo'lishi mumkin. Muayyan tadqiqot ehtiyojlariga qarab, Langstroth uyalari, top bar uyalari yoki kuzatuv uyalari kabi turli xil asalari uyalari ishlatilishi mumkin.

- Asalarichilik uskunlari: Bu asalarilar bilan xavfsiz munosabat qilishda va ishlashda himoya kiyimlari, tutun chiqaruvchi asboblari, uya asboblari va asalari cho'tkalarini o'z ichiga oladi.

- Namuna olish uskunlari: Tadqiqotchilar asalari namunalarini yig'ish uchun maxsus jihozlardan foydalanishlari mumkin, masalan, dalada asalarilarni ushlash uchun tutish to'rlari (sachok) yoki gulchang va nektar namunalarini yig'ish uchun asboblari.

- Laboratoriya jihozlari: Laboratoriya tahlilini o'z ichiga olgan tadqiqotlar uchun mikroskoplar, sentrifugal va genetik tahlil asboblari kabi asalari namunalarini qayta ishlash va tahlil qilish uchun uskunalar talab qilinishi mumkin.

Dala kuzatuvlari: Tadqiqotchilar tabiiy muhitda asalarilarning xatti-harakatlarini kuzatish uchun dala tadqiqotlari o'tkazishlari mumkin. Bu asalarilarning atrof-muhit bilan o'zaro

ta'sirini tushunish uchun vaqt oralig'ida suratga olish, xatti-harakatlar monitoringi va ekologik tadqiqotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

- Namuna to'plash: Tadqiqotchilar genetika, oziqlanish va kimyoviy tarkib kabi jihatlarni o'rganish uchun asalari mahsulotlari : asalarilar, gulchangi, asal va mum namunalarini to'plashlari va tahlil qilishlari mumkin.

- Changlanishni o'rganish: Tadqiqotchilar nazorat qilinadigan muhitlarni yaratish, ularning harakatini kuzatish uchun yorliqli (lentali) asalarilardan foydalanish va ular qo'nadigan gullar namunalarini kuzatish orqali asalarilarning changlatish xatti-harakatlarini o'rganish uchun tajribalar ishlab chiqishlari mumkin.

- Genetika tadqiqotlari: Tadqiqotchilar asalari turlarining genetik xilma-xilligi, populyatsiya tuzilishi va evolyutsion munosabatlarini o'rganish uchun molekulyar biologiya usullaridan foydalanishlari mumkin.

Asalari yetti xazinaning biri – deydi dono xalqimiz. Bu haq gap! Asalarilar ko'plab shifobahsh asal, mum, propolis, gulchangi to'plashi bilan ayni paytda qishloq xo'jalik ekinlarini, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham u qishloq xo'jaligida serdaromad sohalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda asalarichilikka bo'lgan talab va uning shifobaxsh maxsuloti bo'lgan asal yetishtirishga oqilona ixtisoslashuvini saqlab qolish, mustaqil respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davrida kun sayin iqtisodiyotimizning asosini tashkil etadi.

Respublikamiz asalarichilari oldiga har bir asalari oilasining mahsuldorligini oshirish hisobiga asal yetishtirishni ko'paytirish qat'iy vazifasi qo'yilgan. Buning uchun har bir asalarichidan va har bir rahbardan, asalari oilasini zooveterinariya qoidalari asosida parvarishlab, asalarilarni tez-tez serasal o'simliklar o'sadigan joylarga ko'chirib turishni talab qiladi. Asalarilarning foydali va serdaromad tomonlari shundaki, ular o'simlik gullarini chetdan changlatish yo'li bilan ekinlar hosildorligini 10-60 % gacha oshirishga sabab bo'ladi [2,6].

Respublikamiz sharoitida esa g'o'za, beda va dukkakli o'simliklar, ozuqabop hamda poliz ekinlari maydonlari kengayib borishi tufayli, qishloq xo'jalik ekinlarini changlatishda asalarilarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Asalarilarning ana shunday beminnat xizmatlarini va u dehqonlarning qanotli yordamchisi ekanligini hisobga olib, hukumatimiz keyinigi yillarda asalarichilikni respublikada yanada rivojlantirish to'g'risida ko'pgina qarorlar qabul qildi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16 oktyabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi – 3327 sonli qarori qabul qilindi. Bu qaror yordamida

respublikamizda asalarichilik bir muncha rivojlandi, uning moddiy-texnika ta'minoti, kadrlar bilan ta'minlash ishlari mustahkamlandi.

Respublikamizda sotsial va iqtisodiy rivojlantirishning 2026 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida ham asalarichilikni jadal usulda rivojlantirish mo'ljallangan. Mamlakat oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda ham asalarichilik katta ahamiyatga egadir [2].

Respublikada asalarichilikning rivojlanish taraqqiyoti va tarixi, istiqloq mafkurasi asosida, yaxlit bir tizim sifatida o'rganishga e'tibor qaratildi. Asalarichilik qishloq xo'jaligining tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan tarmog'i bo'lib, uning o'zi ayni paytda qator mustaqil ilmiy bo'limlarga bo'linganligi e'tiborga molik. 2009–2022-yillarda asalarichilik subyektlarining 21937 taga ko'payib, ya'ni 38 foizga o'sishi, shu bilan birga, asalari oilalari 96499 taga ko'payib, ya'ni 71 foizga o'sishi natijasida asal ishlab chiqarishda ham salmoqli natijalarga erishilgani kuzatilgan. 2020- yilda 2329,4 tonna asal, 2010- yilda 3171,9 tonna asal, 2020- yilda 11786,1 tonna asal ishlab chiqarilgan bo'lib, 2011- yilda 2009- yilga nisbatan 7456,7 tonna asal ko'p ishlab chiqarilgan, ya'ni 2011- yilda 2009- yilga nisbatan asal ishlab chiqarish 62,5 foizga oshgan. 2000–2001- yillarda «O'zbek-asal» uyushmasi tasarrufdagi xo'jaliklarda 160 mingdan ziyod asalari oilasi mavjud bo'lgan.[5,6,8].

Asalarichilikni rivojlantirish dasturiga muvofiq 2014-yilda 834 ta (76,4%) loyiha ishga tushirildi va ularda 41 ming 230 ta (rejaga nisbatan 110%)asalari oilalari tashkil qilindi. Ushbu maqsadlar uchun jami 19,2 mlrd. so'm mablag'lar, shu jumladan 4,8 mlrd. so'm tijorat banklarining kreditlari yo'naltirildi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida 2014-yilning o'tgan davrida 9 ming tonna asal ishlab chiqarildi (2013-yilga nisbatan 127%) va 2300 ta yangi ish o'rini yaratildi. Asalarichilik yo'nalishida 2015-yilda amalga oshirilgan 988 ta loyihada 49 ming 60 ta asalari oilasi boqish tashkil etildi. Bu loyihalar uchun sarflangan 34 mlrd. 538 mln. so'm mablag'ning 9 mlrd. 694 mln so'mini tijorat banklari kreditlari tashkil etdi. Loyihalarni amalga oshirish natijasida 1904 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Kelgusida yangi xo'jaliklar tashkil etish hisobidan asal yetishtirishni ko'paytirish va mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilmoqda. 2011- yilda Ukraina Respublikasi Zakarpatiya viloyatidan 3730 AQSh dollariga 1878 ta Karpat zotli naslli ona asalari keltirildi. Keltirilgan naslli ona asalari ko'paytirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Amudaryo Poshnam» fermer xo'jaligiga 200 bosh, Andijon asalarichilar uyushmasiga 50 bosh,

Qashqadaryo viloyatidagi «Asqarov Niyoz» fermer xo'jaligiga 100 bosh, Navoiy viloyat asalchilik uyushmasiga 500 bosh, Surxondaryo asal uyushmasiga 100 bosh, Farg'onaga 478 bosh, Xorazm viloyatiga 300 bosh va Toshkent shahar asalarichilar uyushmasiga 150 bosh asalari berildi.

Asalarichilik bilan shug'ullanuvchi barcha toifa xo'jaliklari bilan 2591 ta zooveterinariya punktlari o'rtasida barcha zooveterinariya servis xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzilib, ular tomonidan asalari kasaliklarining oldini olish va ularga qarshi kurashishda dori-darmonlar bilan ta'minlash bo'yicha barcha servis xizmatlari yo'lga qo'yildi. Asalarichilik xo'jaliklarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 31 ta pavilyon tarqatildi. Bu esa xalqimiz dasturxonida ming bir dardga davo ushbu ne'matning yanada mo'l bo'lishini ta'minlaydi. Kelgusida yangi xo'jaliklar tashkil etish hisobidan asal yetishtirishni ikki ming tonnaga yetkazish va mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilmoqda. Bu esa xalqimiz dasturxonida ming bir dardga davo ushbu ne'matning yanada mo'l bo'lishini ta'minlaydi.

Respublikamizning ajoyib tabiati va iqlim sharoiti, qishloq xo'jaligining barcha sohalari kabi asalarichilikning ham muvoffaqiyatli rivojlantirish imkonini beradi. Cheksiz maydonlardagi o'tloqlarimiz, rang-barang adiru qirlarimiz, bepoyon paxtazorlarimiz, keng

maydonlarni ishg'ol etgan bog'va gulzorlarimiz, asalarilar uchun ajoyib ozuqa manbai hisoblanadi. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda xalq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish salmog'i, axolining kundan-kunga ortib borayotgan talablariga yetarli darajada javob bera olmaydi.

Asalarichilikning qishloq xo'jalik ekinlari hosilini oshirishdagi ahamiyati yanada katta. Ma'lumki, dunyodagi 80% gulli o'simliklar, chetdan changlanadilar. Ana shu o'simliklarning chetdan changlanishida, asalarilar asosiy rol o'ynaydi, chunki boshqa xil changlatuvchi hasharotlar soni juda kam va ularni kerakli paytda ekinlarni changlantirishga ko'chirib bo'lmasligi tufayli, asalarilar bunga juda mos keladi. Asalarilardan xohlagan paytda, kerakli o'simliklarni chetdan changlantirishda foydalanish mumkin.

Asalarilar tufayli chetdan changlanadigan beda va dukkakli o'simliklar hosili 35-40%, kungaboqar 45-50%, mevali daraxtlar 50-60% va poliz ekinlari esa 100% gacha oshganligi aniqlangan.

Asalarilarning, ayniqsa g'o'zalarning chetdan changlanishida va ularning hosildorligining oshirishdagi ahamiyati yanada katta. Tajribalardan shular aniqlanganki, asalarilar yordamida changlangan g'o'za maydonlarining hosili 10-23% gacha ortganligi va ularning ko'sagi

yirik bo'lgan va pishib yetilish tezlashganligi kuzatilgan. Respublikamizdagi asalarichilar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, paxta maydonlariga joylashtirilgan har bir asalari oilasidan 30-40 kg gacha asal olinmoqda. Demak paxtachilikda hosildorlikni oshirish uchun har bir paxta dalasida asalari oilasini joylashtirish kerak bo'ladi. Asalarilar qancha ko'p bo'lsa, undan olinadigan asal ham va qishloq xo'jalik ekinlari hosili ham shuncha ko'p bo'ladi. Bulardan asalarichilikning har tomonlama foydali va daromadli ekanligi ko'rinib turibdi.

Qishloq xo'jaligi ham ko'p jihatdan asalarilarning mavjudligiga bog'liq. Asalarilar qishloq xo'jaligi ekinlarini changlatadi, bu esa hosildorlikni oshiradi. Asalari vatani Janubiy Osiyo hisoblanadi. Hozirgi davrda janubiy kengliklardan Chekka Shimolgacha tarqalgan. Asalarilar, asosan, oila bo'lib yashaydi. Bir oila bir ona (xalq tilida „podshosi“ deb ham yuritiladi), bir necha ming ishchi va bir necha yuz erkak asalaridan iborat. Asalarilar qadimdan qimmatbaho mahsulotlar bo'lgan asal, propolis, mum, ona asal, asalari suti, asal, asalari zah, asalari va boshqalarni olish, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlarini mevali bog'larni changlatish uchun boqiladi. Asalari oilasi bir mavsumda 140 — 150 kg asal to'playdi, bundan 100 kg asalari ta'minotiga sarflansa, 40 — 50 kg asal ajratib olinadi. Asalari oila a'zolarining xizmat faoliyati o'zaro bog'liq bo'lganidan ularning birortasi ham o'zicha mustaqil hayot

kechira olmaydi. Paxta ekiladigan yerlarda yuqori mahsuldorlikka erishildi.

Respublikada asalari oilasini rivojlantirish maqsadida, asal yetishtirishning tezkor texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish, fan va texnika yutuqlarini, ilg'or tajribalarni asalarichilikka joriy etishni davr taqozo etmoqda. Asalarilarning yangi zotlarini yaratish va naslini yaxshilash borasida, ish olib borish ham muhim masalalardandir. Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, respublikamizda yetishtirilayotgan ona asalarilarning ko'pchiligi kam mahsul bo'lib qolmoqda. Asalarichilar oldida turgan vazifalardan yana biri, asalari kasalliklari va zararkunandalari bilan doimiy kurash olib borishdir. Hozirgi kungacha juda havfli yuqumli kasallik bo'lgan Amerika va Yevropa chirishi, varroatoz kasalliklari, mum parvonasini yo'qotish masalalari to'lato'kis hal qilinmagan. Boshqa yirtqich xasharotlar va qushlarga qarshi kurashning amaliy tadbirlari ishlab chiqilmagan, asalarilarning turli kasalliklarini profilaktika qilish va sanitariya – veterinariya nazorati to'layo'lga qo'yilmagan. Asalarichilik fermer xo'jaliklari faqatgina bitta asal hosiliga qarab turmasliklari kerak. Buning uchun erta bahordan ona asalari va paketli asalarilar yetishtirib, sotib turishlari kerak. Bundan tashqari

asalari suti va zahri ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Shu o`rinda yana bir ma`lumotga o`z e`tiborimizni qaratdik. Bizga ma`lumki Andijon viloyatining janubiy-sharqiy qismida tez – tez ob – xavo o`zgarib shamol kuchiroq bo`lib turadi. Ayniqsa baxor va kuz oylarida va bu jarayon daraxtlarning gullagan va pishayotgan

vaqtlariga to`g`ri keladi. Tajribalar shuni ko`rsatadiki, daraxtlarning mevalari shamol orqali changlanganidan to`kilish ehtimoli yuqoriroq. Asalarilar orqali changlangalida esa deyarli ancha muxtaxkamlikka ega bo`lar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. I. Isamuhamedov. Asalarichilik. – T.: O`qituvchi, 1995.
2. A.I.Isamuxamedov., H.K.Nikadambayev.Asalarichilikni rivojlantirish asoslari" Toshkent-2013 y
3. A.I.Isamuhamedov, H.K.Nikadambayev “Asalari kasalliklari va zararkunandalari” O`quv qo`llanma. Toshkent,“Sharq”, 2013 yil
4. Alimuhamedov S., Xo`jaev Sh. «Go`za zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari». T. “O`zbekiston” 1979 y.
5. B.A.Qaxramonov, F.E.Safarova, S.I.Isamuxammedov, X.A.Donayev, X.B.Ergashev “Asalarichilik asoslari” Toshkent-2021
6. B. A. Qahramonov, A. I. Isamuhamedov, U. Sh. Ballasov,S. F. Ergashev, O. S. To`rayev. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklarida asalari oilalarini parvarishlash. O`quv qo`llanma. – T.: ToshDAU, 2009
7. T. Sh. Akmalxonov. Asalarichilik. Ma`ruza matnlari. – T., 2000.
8. T. Sh. Akmalxonov, S. Sh. Isamuhamedov, B. A. Qahramonov. Asalarichilikdan amaliy mashg`ulot darslari topshiriqlarini bajarish bo`yicha uslubiy qo`llanma. – T.: ToshDAU, 2000
9. To`rayev .O .S.,Asalarichilikning ko`ch ajratish xususiyatlari. 2020 y
10. B. A. Qahramonov, A. I. Isamuhamedov, U. Sh. Ballasov,S. F. Ergashev, O. S. To`rayev. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo`jaliklarida asalari oilalarini parvarishlash. O`quv qo`llanma. – T.: ToshDAU, 2009
11. T. Sh. Akmalxonov. Asalarichilik. Ma`ruza matnlari. – T., 2000.
12. T. Sh. Akmalxonov, S. Sh. Isamuhamedov, B. A. Qahramonov. Asalarichilikdan amaliy mashg`ulot darslari topshiriqlarini bajarish bo`yicha uslubiy qo`llanma. – T.: ToshDAU, 2000